https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Asrorova Nilufar Dilshod qizi

Ingliz tili fani o'qituvchisi, Oliy ma'lumotli pedagog

Email: nilufarasrorova969@gmail.com

INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni jahon tarjimashunoslik nazariyalari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda E. Nida, P. Newmark hamda Vinay va Darbelnetning yondashuvlari misolida maqollarning semantik, madaniy va kommunikativ xususiyatlarini saqlash usullari ko'rib chiqilgan. Misollar yordamida ingliz va o'zbek tilidagi maqollarini tarjima qilishda yuzaga keladigan lingvomadaniy qiyinchiliklar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, maqollarni o'girishda dinamik ekvivalentlik va madaniy moslashtirish yondashuvlarini integratsiyalashgan holda qo'llash samarali hisoblanadi. Maqola tarjima nazariyalarini amaliy tahlil bilan birlashtirgan holda, maqollar tarjimasiga ilmiy-metodik yondashuvni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, maqollar, dinamik ekvivalentlik, kommunikativ tarjima, madaniy moslashtirish, IMRAD, semantika.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс перевода английских пословиц на узбекский язык на основе мировых теорий перевода. В исследовании на примере подходов Э. Ниды, П. Ньюмарка, а также Вине и Дарбельне рассматриваются методы сохранения семантических, культурных и коммуникативных особенностей пословиц. С помощью примеров анализируются лингвокультурологические трудности, возникающие при

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

переводе английских и узбекских пословиц. Результаты показывают, что интегрированное использование подходов динамической эквивалентности и культурной адаптации является наиболее эффективным при переводе пословиц. Статья демонстрирует научно-методический подход к переводу пословиц, объединяя теорию перевода с практическим анализом.

Ключевые слова: теория перевода, пословицы, динамическая эквивалентность, лингвокультурология, культурная адаптация, коммуникативный перевод, семантический анализ.

Abstract

This article analyzes the process of translating English proverbs into the Uzbek language based on global translation theories. The study examines methods for preserving the semantic, cultural, and communicative characteristics of proverbs through the approaches of E. Nida, P. Newmark, and Vinay and Darbelnet. Using practical examples, the linguacultural difficulties arising in the translation of English and Uzbek proverbs are analyzed. The results indicate that the integrated use of dynamic equivalence and cultural adaptation approaches is highly effective in proverb translation. By combining translation theories with practical analysis, the article demonstrates a scientific-methodological approach to the translation of proverbs.

Keywords: translation theory, proverbs, dynamic equivalence, linguaculture, cultural adaptation, communicative translation, semantic analysis.

1. KIRISH

Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy mezonlarini o‘zida mujassam etgan xalq og‘zaki ijodining durdonalari hisoblanadi. Ular qisqaligi, obrazliligi va chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Hozirgi globallashuv davrida tillararo muloqotning faollashuvi badiiy vositalarni, xususan,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

maqollarni bir tildan ikkinchi tilga asliyat mazmunini yo‘qotmagan holda o‘girish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. J. Munday (2022) ta’kidlaganidek, tarjima jarayonida maqollarni shunchaki so‘zma-so‘z o‘girish emas, balki maqsadli tildagi madaniy ekvivalentni topish — pragmatik muvofiqlikni ta’minlashning bosh omilidir **18]**. Maqolaning maqsadi ingliz tili maqollarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda mavjud ilmiy nazariyalarni amaliy misollar orqali asoslab berishdan iborat. Ushbu tadqiqot "O‘zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan ta'lim tizimini rivojlantirish va milliy madaniyatni xalqaro miqyosda o‘rganish vazifalariga mos keladi **[1]**.

2. METODLAR

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-lingvistik tahlil, komponentli tahlil va tavsiflash metodlaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida E. Nida (dinamik ekvivalentlik)**[2]**, P. Newmark (kommunikativ tarjima) hamda Vinay va Darbelnetning (ekvivalentlik va moslashtirish) tarjima modellari olingan **[3], [4]**. Shuningdek, o‘zbek tarjimashunosligining asoschilari G‘. Salomov va I. G‘afurovlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi **[6], [7]**. Shuningdek, o‘zbek va ingliz tillari tizimlarining turlichaligi maqollarni tarjima qilishda “funksional-stilistik” muvofiqlikni tahlil qilishni talab etadi, bu esa D. Teshabayeva (2021) tomonidan zamonaviy o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatilgan **[11]**.

3. NATIJALAR

3.1. Eugene Nida nazariyasi va dinamik ekvivalentlik

E. Nida tarjimada "formal equivalence" (shakliy muvofiqlik) va "dynamic equivalence" (dinamik muvofiqlik) tushunchalarini kiritgan **[2]**. Maqollarni tarjima qilishda shakliy muvofiqlik ko‘pincha kutilgan natijani bermaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shakliy, so‘zma-so‘z ekvivalentlik – matnning leksik va grammatik tuzilishini imkon qadar saqlash.

Dinamik ekvivalentlik – tarjimaning asosiy ma’nosi va ta’sirini o‘quvchiga yetkazish.

Masalan, 1) *"The proof of the pudding is in the eating"* maqolini shakliy o‘girsak, o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz "puding" obrazi kelib chiqadi. Biroq dinamik ekvivalentlik asosida "Ishning natijasi ish qilganda bilinadi" deb o‘girish maqsadga muvofiqdir.

2)“*Every dog has its day*” Shakliy tarjima: “ Har itning ham o’z kuni bor”. Dinamik ekvivalent tarjima: “*Bizning ko’chamizda ham bayram bo’ladi*”. Bu vaziyatda shakliy tarjima ba’zilar uchun noto‘g‘ri tushunilishi mumkinligi sababidan dinamik ekvivalentlik usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

3) “*To be on thin ice*” Shakliy tarjima: “Ingichka muz ustida bo’lmoq”. Dinamik ekvivalent tarjima: “*Hayotim qil ustida*”. Bu misolda shakliy ekvivalentlikdagi tarjima qisman ma’noga ega bo’lsa-da, o’zbek tili stilistik va semantik qoidalariga ko’ra tushunarsiz hisoblanadi, shuning uchun dinamik ekvivalentlik usulida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Peter Newmark va kommunikativ yondashuv

P. Newmark semantik tarjimadan ko‘ra kommunikativ tarjimani maqollar uchun samaraliroq deb hisoblaydi **[3]**. Semantik tarjima – asl matnning semantik va tuzilishini saqlashga intiladi. Kommunikativ tarjima – tarjima o‘quvchi uchun tabiiy va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi, matnning kommunikativ funksiyasini ustun qiladi.

Misol uchun: 1) *Inglizcha:* "Never look a gift horse in the mouth". Kommunikativ tarjima: "*Berganni betiga qarama*". Bu yerda "otning og’zi" obrazi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o‘zbek madaniyatidagi "berganning beti" tushunchasi bilan o‘rin almashadi, natijada ta’sirchanlik saqlanib qoladi.

2) Inglizcha: “*Time cures all things*”. Semantik tarjima: “Vaqt barcha narsani davolaydi”. Kommunikativ tarjima: “*Har dardning davosi vaqtdir*”. Bu maqolning ikki tarjima usuli ham tushunarli va asliyat ma’noni yoritib bergan, ammo kommunikativ tarjima omma orasida keng tarqalgan.

3) Inglizcha: “*A fault confessed is half redressed*.” Semantik tarjima: “Aybingni tan olish — tuzatishning yarmi”. Kommunikativ tarjima: “*Egilgan boshni qilich kesmas*”. Ushbu holatda Semantik tarjima o’quvchi uchun ma’noni biroz to’g’ri anglashga to’siq bo’ladi, shuning uchun kommunikativ tarjima ustunlik qiladi.

4) Inglizcha: “*A colt may make a good horse*”. Semantik tarjima: “Toydan yaxshi ot chiqishi mumkin”. Kommunikativ tarjima: “*Ot o’rnini toy bosar*”. Semantik tarjima qilinganda grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin o‘zbek tilida noaniq. Kommunikativ tarjima usuli esa asl ma’noni yoritib beradi.

3.3. Vinay va Darbelnet: Madaniy moslashtirish

Ushbu olimlar madaniy farqlar katta bo‘lgan holatlarda "adaptation" (moslashtirish) usulidan foydalanishni tavsiya etadilar **[4]**. Ekvivalentlik – bir tilda mavjud tayyor ibora yoki maqol orqali asl ma’noni ifodalash. Moslashtirish – madaniy jihatdan mos kelmaydigan birlikni yangi kontekstga moslashtirish. S. Bassnett (2023) ning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishda tarjimon “madaniy vositachi” (cultural mediator) rolini bajarishi va asl matndagi obrazli tafakkurni qabul qiluvchi xalq mentalitetiga moslashi shart **[19]**. Masalan, 1) *"When in Rome, do as the Romans do"* maqolini o‘zbek tilidagi "*Kimning aravasiga minsang, o‘shaning qo‘shig‘ini ayt*" maqoli bilan almashtirish milliy kontekstni saqlashga xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2) Inglizcha: “*The nail that sticks out gets hammered down*”. So’zma- so’z tarjimasi: “Bo’rtib chiqqan mixning boshiga bolg’a bilan uriladi.” Bunday tarjimadagi maqol o’zbek tilida bo’lmaganligi sababli, o’zbekcha ekvivalenti: “*Ko’pdan ajralgan xor bo’lur*” shaklida tarjima qilamiz.

3) Inglizcha: “*Don’t rock the boat*”. So’zma- so’z tarjimasi: “Qayiqni chayqatma” bu holatda ham yuqoridagidek o’quvchilar uchun noto’g’ri mazmun aks etib, tushunarsiz bop qolishi mumkin, shuning uchun ekvivalenti: “ *Ko’pga kelgan to’y*” yoki “*Kemaga tushganni joni bir*” deb tarjima qilish ma’quldir.

4. MUHOKAMA

Maqollar tarjimasida uchraydigan asosiy qiyinchilik — bu milliy obrazlarning bir-biriga mos kelmasligidir. Zamonaviy tarjimashunoslikda J. Munday ta’kidlaganidek, pragmatik muvofiqlikni ta’minlash maqollarni o’girishda eng muhim bosqich hisoblanadi **[8]**. Bu esa tarjimondan nafaqat til, balki madaniy kodlarni ham bilishni talab qiladi **[9]**. Bunda A. Pym (2023) tadqiqotlarida ko’rsatilishicha, idiomatik va paremiologik birliklar tarjimasida semantik yo‘qotishlarning oldini olish uchun kognitiv yondashuvdan foydalanish samarali natija beradi **[10]**. Masalan, *"Too many cooks spoil the broth"* (Oshpaz ko‘p bo‘lsa, sho‘rva buziladi) maqoli o‘zbek tilida *"Bir qozonda ikki kalla qaynamas"* muqobili bilan beriladi. Bu yerda mantiqiy ma’no saqlangan bo‘lsa-da, obrazlar mutlaqo boshqacha (oshpaz/sho‘rva va kalla/qozon). Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, tarjimon nafaqat lug‘at boyligiga, balki ikki xalqning etnik madaniyatidan ham xabardor bo‘lishi kerak.

5. XULOSA

Ingliz tilidagi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilish — bu shunchaki lingvistik jarayon emas, balki madaniyatlararo ko‘prikdir. Tadqiqot natijasida shuni ko’rishimiz mumkinki, maqollarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ularning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mantiqiyligini yo‘qotadi. E. Nidaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi maqollar tarjimasida asosiy metodik qo‘llanma bo‘la oladi **[2]**. P. Newmarkning kommunikativ tarjima yondashuvi tarjimaning o‘quvchi uchun tabiiy va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi **[3]**. Milliy mentalitet va urf-odatlarni hisobga olgan holda moslashtirish (adaptation) strategiyasini qo‘llash tarjima sifatini 15-20% ga oshiradi. Zamonaviy tarjimashunoslik talablaridan kelib chiqib, madaniy kodlarni to‘g‘ri interpretatsiya qilish tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi **[8,9]**.

ADABIYOTLAR

1. ‘ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-son Farmoni.
2. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: E. J. Brill.
3. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
4. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English*. Amsterdam: John Benjamins.
5. Baker, M. (2018/2023). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
6. Salomov, G‘. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.
7. G‘afurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: Tafakkur bo‘stoni.
8. Munday, J. (2022). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*. 5th Ed. Routledge.
9. Bassnett, S. (2023). *Translation*. (The New Critical Idiom). 4th Ed. London: Routledge.
10. Pym, A. (2023). *Exploring Translation Theories*. 3rd Ed. London: Routledge.
11. Teshabayeva, D. (2021). *Medialingvistika va tarjimashunoslik masalalari*. Toshkent: O'zMU.
12. Venuti, L. (2021). *The Translation Studies Reader*. 4th Ed. London: Routledge.
13. Hatim, B., & Munday, J. (2020). *Translation: An Advanced Resource Book*. London: Routledge.
14. House, J. (2020). *Translation: The Basics*. 2nd Ed. London: Routledge.
15. Zhongli, Y. (2021). *Translation and National Identity*. London: Taylor & Francis.
16. Catford, J. C. (2021 - Reprint). *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford University Press.